

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA NORASMIY BANDLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Ostanov E.

Dotsent, Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası

Ostanova M.

Katta o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, ish bilan bandlik, norasmiy ish bilan bandlik, ishga joylashtirish.

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali va uni rivojlantirish, aholining ish bilan bandligini ta'minlash, norasmiy bandlik, aholini norasmiy ish bilan bandligi masalalari bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Kirish. Inson resurslari (HR) – bu aholining bir qismi va jamiyatning iqtisodiy rivojlanish omili bo'lib, butun jamiyatning mehnatga qobiliyati jamlanmasi hisoblanadi.

Xalqlarning asosiy boyligi – odamlar. Insonni rivojlantirish jarayoni ko'p jihatdan uning ijtimoiy imkoniyatlari va ne'matlarini belgilaydigan, turmush kechirishni ta'minlaydigan, jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladigan inson huquq va erkinliklariga bog'liqdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatimizda yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq.

Tadqiqotning metodologiyasi va natijalari. Tahlil. O'zbekistonda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o'ta dolzarb qilib qolmoqda.

O'zbekistonda 2022 yil 1 yanvar holatiga mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, iqtisodiy faol aholi 14,8 mln. kishi, jami ish bilan bandlar 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3%), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8%), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5%) va chet elda ishlash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi.

O'tgan vaqt ichida mehnat sohasida ham aksariyat jarayonlarni raqamlashtirish, mehnat statistikasini Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga moslash, uning real ko'rsatkichlarini ta'minlash, ish bilan bandlikning yangi shakllarini rivojlantirish va keng foydalanish, shaffoflikni ta'minlash va mumkin qadar aholiga barcha xizmatlarni elektron platformalar orqali qulay va tezkor amalga oshirishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri 2020 yilda qabul qilindi va u to'g'ridan-to'g'ri amal qilish kuchiga ega Qonun bo'ldi. Unda davlatning bandlik sohasidagi asosiy tamoyillari aks etib, hozirgi zamon mehnat huquq normalariga asoslangan. Jumladan, mehnat bozorini tartibga solishning yangi vositalari xususan, tadbirkorlikni rag'batlantirish, o'zini o'zi band qilish, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish, malakasini oshirish, ish stajini hisobga olish, ishsizlik nafaqasini to'lash, ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar, respublikadan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyati amalga oshirayotgan fuqarolar va boshqa muhim yo'nalishlardagi masalalar qamrab olindi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi passiv choralardan (ishsizlik nafaqalarini to'lash) faol bandlik siyosatiga o'tmoqda (ayniqsa, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar) va ishsizlarni kasbga, tadbirkorlikka o'qitish, mikrocreditlar va subsidiyalar ajratish orqali ularning ish bilan bandligiga ko'mak berishni keng yo'lga qo'ydi.

Ilk bor mamlakatimizda norasmiy mehnat bilan bandlik va yashirin iqtisodiyot muammolari ochiq muhokama qila boshlandi va davlatimiz tomonidan uning ko'lamini kamaytirish bo'yicha keng chora-tadbirlar qabul qilindi. Aholining norasmiy mehnat bilan bandligi hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud bo'lib, u nafaqat salbiy balki ba'zi muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmagan inson resurslarini ish bilan va natijada daromad olishlarini ta'minlab, ishsizlikni kamaytiradi (nochor qolganlar uchun haqiqiy ijtimoiy himoya vositasi), qashshoqlikni oldini oladi hamda o'z daromadlarini rasmiy sektorda sarflab, ichki talabni oshishi va YAIMning o'sishiga turtki bo'ladi.

Ikkinchidan, norasmiylik ko'p hollarda biznes boshlashning bir usuli sifatida rasmiy sektorga o'tishga qadam hisoblanadi.

Norasmiy mehnat bilan bandlik butun dunyoda keng tus olgan hodisa bo'lib, uning ko'lamini kamaytirish davlatning bu sohada tizimli kompleks siyosat olib borishini talab qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotiga ko'ra, dunyoda 10 ta ishchidan 6 ta (ish bilan bandlarning 61%) va 5 ta korxonadan 4 tasi yashirin iqtisodiyotda norasmiy faoliyat yuritadi. Norasmiy mehnat bilan bandlikning shakllanishini iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillarga ega bo'lgan hamda pirovard maqsadi iqtisodiy foyda olishga qaratilgan va aksariyat hollarda majburiy ko'rinishdagi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Norasmiy mehnat bilan bandlik yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida uning darajasini kamaytirish to'g'ridan-to'g'ri yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bilan uzviy bog'liqlikni va davlatning samarali keng kompleks chora-tadbirlar orqali hal etish zaruratini ko'rsatadi. Norasmiy mehnat bilan bandlikning yuqori darajasi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun turli xavflarga sabab bo'lishi tufayli uni iqtisodiy xavfsizlik tizimi mezonlariga kiritish muhimligi ilmiy asoslandi. Uning yuqori darajasi mamlakat taraqqiyoti, ijtimoiy ziddiyat, teng raqobat muhiti, tengsizlik, tabaqalanishning kuchayishi, aholining rasmiy ijtimoiy tizimida to'liq qamrab olinmasligi, jamiyatda huquq tartibotiga amal qilmaslik, moliyaviy yo'qotishlar va boshqa ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlariga olib keladi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son va 2020 yil 11 avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish,

ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-son qarorlari yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik darajasini kamaytirishga qaratilgan.

Ushbu hujjatlar yashirin iqtisodiyot va norasmiy mehnat bilan bandlik faoliyatiga ma'muriy usullar, taqiqlash orqali bartaraf etishga emas, balki uning qonun doirasida iqtisodiy jihatdan afzal bo'lgan institutsional muhit va sharoitlarni yaratish orqali shaffof faoliyat yuritishini nazarda tutadi.

Raqamli iqtisodiyot yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini talab qiladi hamda aholining ish bilan bandligini, xususan mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida ro'yxatga olish va qulay rasmiylashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi barcha sohalarda mehnat faoliyatida internetdan foydalanish "haqiqiy" va "virtual" dunyo bilan uzviy bog'lanish sharoitida bo'lishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini 2020 yilda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy etilishida ko'rish mumkin. Ushbu elektron axborot tizimida idora va tashkilotlarda band bo'lganlar, shaxsga oid, vakant ish joylari, to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan.

O'zbekistonda 2021 yilda norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi 2001 yilga nisbatan 52,6 foizga oshgan, iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlik 3,3 foizga kamaygan. Shu davrda respublikadan chet elda ishlash uchun ketganlar soni 8 martaga, ishsizlik darajasi 42 martaga, iqtisodiy faol aholi esa 62 foizga oshgan. Iqtisodiy faol aholining jami mehnat resurslariga nisbati 2001 yilda 71,6 foiz va 2020 yilda 77,3 foizni tashkil qilgan.

Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasiga iqtisodiy, huquqiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy - demografik omillar ham ta'sir qiladi. Aksariyat hollarda mehnat bozorida aholining huquqiy savodxonligi bo'lmagan, o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli, o'z kasbi va malakasi bo'yicha iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmagan guruhlar norasmiy mehnat munosabatlariga kirishadilar.

O'zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlarning ijtimoiy-demografik holatini tahlili ularning 32,1 foizi - umumiy o'rta, 61,1 foizi - o'rta - maxsus va 6,8 foizini - oliy ma'lumotli shaxslar tashkil qilishi aholining ma'lumot va malaka darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mehnat bozorida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi mos holda kam bo'lishini ko'rsatmoqda.

Mehnat sohasidagi keng islohotlar natijasida 2016-2021 yillarda mehnat organlari tomonidan kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirilgan fuqarolar soni 8,8 barobar oshgan. Ishsizlarni jamoat ishlariga jalb etish ko'rsatkichi 65 barobar ortgan.

Hozirgi zamonda aholi bandligini ta'minlashda bandlikning nostandart shakllari, jumladan, aholining o'zini o'zi band qilishining o'sishi mehnat bozori moslashuvchanligining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Iqtisodiy inqirozlar, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida va undan so'ng barqaror bo'lmagan ish bilan band xodimlarga ko'proq ta'sir qilishi hamda kambag'allikni qisqartirish maqsadida bandlikning nostandart shakllaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Yevropa Ittifoqida bandlikning nostandart shaklida band bo'lgan xodimlar jami ish bilan bandlikning deyarli 40 foizini jumladan, Niderlandiyada deyarli 50 foizini tashkil qiladi.

Aholining norasmiy mehnat bilan bandligini kamaytirishning muhim vositalaridan biri sifatida nostandart ish bilan bandlik shakllaridan keng foydalanish (masofaviy ish usulida, moslashuvchan ish jadvalida, o'zini o'zi band qilish, frilans, autsorsing, vaqtinchalik, mavsumiy bandlik, uyda bandlik) va xususan o'zini o'zi band qilishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun 68 ta faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari tasdiqlangan bo'lib, ularni yanada kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Natijada, 2022 yil 1 yanvar holatiga 852,4 ming nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Shundan 310,1 ming nafarini 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar tashkil etadi.

XMTning ma'lumotiga ko'ra, dunyoda jami ish bilan bandlikda o'zini o'zi band qilganlar ulushi 42,5 foizni tashkil qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQShda o'zini o'zi band qilganlar aholiga keng xizmat turlarini, 400 dan ortiq faoliyat (tadbirkorlik, ijtimoiy, rieltor, vositachilik, konsultativ xizmatlar, reklama, chakana savdo va boshqalar) ko'rsatadilar va O'zbekistonda ushbu faoliyat turlarida o'zini o'zi band qilishning imkoniyatlari hali ancha kengdir.

Fikrimizcha, o'zini o'zi band qilishni inson resurslarini boshqarish va aholi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish lozim. O'zini o'zi band qilishning yollanma xodimga nisbatan afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ✓ o'ziga rahbar bo'lish va o'z ish faoliyatini to'liq nazorat qilish hamda yakuniy mahsulot uchun o'z ovozigaga ega bo'lish;
- ✓ ko'proq daromad olish imkoniyatiga ega bo'lish, frilanserlar yollanib ishlaydiganlarga nisbatan ko'proq pul topadilar va yo'l xarajatlarini tejagan holda uyda o'tirib, bola parvarishi bilan ham shug'ullanish imkoniyati paydo bo'lishi;
- ✓ ishning turli-tumanligi bilan bahramand bo'lish, doimiy ishga moslashish, o'z mahoratini oshirish va yangilash, har bir yangi mijoz bilan yangi chaqiriq, da'vat tufayli ijodkor bo'lishi va o'z biznesini ochishi;
- ✓ o'zi uchun kun tartibini o'rnatish, belgilangan ish jadvalining mavjud emasligi va ish soatlarining moslashuvchanligi;
- ✓ o'z mijozlarini tanlashi va kimga xizmat ko'rsatish huquqiga to'liq egalik qilishi.

Mehnat bozorida inklyuzivlikni ta'minlash, yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligiga ko'maklashish maqsadida ular uchun alohida dastur va chora-dasturlar qabul qilinishi natijasida aholining ushbu guruhlarini mehnat faoliyatiga faol jalb etishga erishilmoqda.

2017-2020 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga 33,3 mlrd.doll. xorijiy investitsiyalar, shu jumladan, 22,7 mlrd.doll to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kiritilishi natijasida mamlakatimizda barqaror yangi ish o'rinlarining yaratilishi va o'sishi kuzatilmoqda. Natijada, 2016 yil 339,4 ming, 2017 yil 389,3 ming, 2018 yil 372,1 ming, 2019 yil 388,5 ming, 2020 yil 427,8 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni ish bilan bandligi masalasining o'ta dolzarbligini hisobga olgan holda, 2021 yil boshidan qishloq xo'jaligi uchun 1 gektardan yer ajratish orqali ularning bandligini ta'minlash yo'lga qo'yildi.

XXI asrda iqtisodiy taraqqiyot uchun inson kapitali muhim omil bo'lib, uni rivojlantirish, oliy va professional ta'limning sifatini oshirish har qanday mamlakat oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Barcha yetakchi, ilg'or davlatlar tajribasi faqat inson kapitalini to'laqonli rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli, 2020 yilda mehnat bozorini yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash, professional standartlar, tarmoq malakalar ramkalari va malaka talablarining ishlab chiqilishi hamda yangilab borilishi, malaka va bilimlarni baholash milliy tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash maqsadida Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq va hududiy kengashlar tashkil etildi.

Aholini kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlashning uch bosqichli tizimi:

- 1) band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi hududiy «Ishga marhamat» monomarkazlari;
- 2) mamlakatning barcha hududlarida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufida tuman va shahar kasb-hunarga o'qitish markazlari;

3) Mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etildi.

Jahondagi globallashuv, mamlakatlarning o'zaro integratsiyalashuvi mehnat bozorida ishchi kuchining erkin harakatlanishi va ularning o'z mehnat potensialidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratdi. 2000 yildan boshlab, O'zbekistondan chet elga mehnat faoliyati yuritish uchun chiqish doimiy xususiyatga aylandi va bu jarayonga ancha vaqt yetarli e'tibor qaratilmadi.

Inson resurslarining mamlakat ichida samarali mehnat mobilligini ta'minlash aholini ish bilan bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Yangilanayotgan O'zbekistonning istiqbolini belgilab beruvchi hujjatlarda raqamli va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini hamda aholining samarali ish bilan bandligini, aholi va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni, jumladan mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mehnatga layoqatli aholi sonining jadal o'sib borishi yaqin istiqbolda mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining keskin o'sishini va aholi bandligini ta'minlash masalasi mamlakat oldida turgan eng dolzarb muammoga aylantiradi. Respublikamizda 2021 yilda ish bilan band aholi soni 13,2 mln. kishini va shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 million kishi (43,3%) tashkil qilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, respublikada 2030 yilga kelib, aholi soni 2020 yilga nisbatan 20,7% yoki 7017,9 ming kishiga, mehnat resurslari 21,9% yoki 4192,1 ming kishiga, ish bilan band aholi 16% yoki 2125,5 kishiga oshishi va norasmiy mehnat bilan bandlar ulushi 20%ga tushishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar istiqbollashtirish davrida band aholining yiliga o'rtacha 1,15%dan oshishi va keng qamrovli kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida norasmiy mehnat bilan bandlar sonining yiliga o'rtacha 5%ga kamayishi natijasida ro'y beradi.

Xulosa. Davlatning makroiqtisodiy siyosati ish o'rinlarini va qulay biznes muhitini yaratish, soliq va pensiya tizimining rag'batlantiruvchi, jozibador shaklini yaratish, yalpi talabni, samarali investitsiyalarni va tarkibiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, erkin raqobat va mehnat bozorida bandlik siyosatining faol tadbirlar turi va ko'lamini kengaytirishga qaratilishi lozim.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish nafaqat davlat boshqaruvida, balki yangi ukkladli iqtisodiyotning shakllanishida, axborotlashgan jamiyatning paydo bo'lishida va yashirin iqtisodiyot va aholining norasmiy bandligini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot modeliga o'tish davlat darajasida ham, biznes tuzilmalari darajasida ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi tubdan yangi, sifat jihatidan o'zgarishlar bilan birga sodir bo'lmoqda. Iqtisodiy birliklarni ro'yxatga olish va norasmiy bandlikni rasmiylashtirish munosib va samarali ish bilan bandlik ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son Qarori.
2. 2020 yil 11 avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni
4. Abduraxmanov K.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Toshkent 2019 y.
5. Zokirova N.Q., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligini tartibga solish. Toshkent 2011y.
6. Останова, М. Э. (2021). ЗАНЯТОСТЬ КАК КРИТЕРИЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ЭКОНОМИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН). *Государственное и муниципальное управление. Ученые записки*, (3), 82-88.